Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317778

1. Некоторые люди не могут пользоваться материальными благами, потому что цифровые продукты не имеют таких барьеров: копирование и неограниченное можно распределять между людьми.

2. При использовании сырья нет ограничений по его количеству. Цифровые продукты не теряют своих первоначальных функций, и эти функции можно улучшить посредством сотрудничества или обмена.

3. Ограничения на объемы готовой продукции, производимой посредством процессов трансформации и одновременно по количеству и количеству клиентов предотвращает ограничения[3].

Использованная литература

1. Гусев М.С., Гусев А.Ю. Колпаков, А.К Моисеев. Экономическая структура трансформации: механизм и управление.

2. Мирзаев О.Д. The Methodological Foundations of the Process of Transformation of Industrial Enterprises. USA page 55-58

3. Мирзаев О.Д.Методологические основы процесса трансформации промышленных предприятий.

YASHIL TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BARQAROR RIVOJLANTIRISH MASALALARI

To’raboyev Qambarali Qodirovich o’g’li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon fakulteti, o’qituvchisi
Tel-n +998 95 054 66 20
Qambaralitoraboyev27@gmail.com
Ahrorqulov Jonibek Otabek o’g’li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon fakulteti “Soliqlar va soliqqa tortish” yo’nalishi 2-bosqich talabasi
ahrorqulovjonibek1@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada yashil tadbirkorlikning ahamiyati, uning barqaror rivojlanishga ta’siri hamda dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Yashil tadbirkorlik atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan biznes model sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada yashil tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda uchraydigan muammolar, jumladan,

Published: 24.05.2025
Cite this article: To’raboyev Qambarali Qodirovich o’g’li, Ahrorqulov Jonibek Otabek o’g’li (2025). Yashil tadbirkorlik faoliyatining barqaror rivojlantirish masalalari. Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317778
© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

moliyalashtirish, texnologik innovatsiyalar, huquqiy muhit va boshqa masalalari yoritiladi.

Kalit so’zlar: Atrof-muhit, muhofaza, tabiiy resurslar, innovatsiyalar, huquqiy muhit, moliyalashtirish, xalqaro tajriba.

Abstract: This article analyzes the importance of green entrepreneurship, its impact on sustainable development, and current issues. Green entrepreneurship is considered as a business model aimed at environmental protection, efficient use of natural resources and environmental sustainability. The article highlights the problems encountered in the development of green entrepreneurship, including financing, technological innovations, legal environment and other issues.

Key words: Environment, protection, natural resources, innovation, legal environment, financing, international experience.

Аннотатsiя: В данной статье анализируется важность зеленого предпринимательства, его влияние на устойчивое развитие и текущие проблемы. Зеленое предпринимательство рассматривается как бизнес-модель, направленная на охрану окружающей среды, эффективное использование природных ресурсов и экологическую устойчивость. В статье освещены проблемы, возникающие при развитии зеленого предпринимательства, включая финансирование, технологические инноватsии, правовую среду и другие вопросы.

Ключевые слова: Окружающая среда, охрана, природные ресурсы, инноватsии, правовая среда, финансирование, международный опыт.

Bugungi, global iqtisodiy va ekologik muammolar sharoitida yashil tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish masalasi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, ekologik muvozanatning buzilishi hamda sanoat chiqindilarining ortib borishi atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan iqtisodiy modellarni shakllantirishni taqozo etmoqda. Sanoatlashish, texnologik taraqqiyot va aholining keskin o‘sishi natijasida tabiiy resurslarning kamayishi, atmosfera ifloslanishi, global isish va iqlim o‘zgarishlari kabi ekologik muammolar vujudga kelmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiy o‘sish bilan birga ekologik xavf-xatarlarning kuchayishi kuzatilmoqda. Bu esa iqtisodiyot va atrof-muhit o‘rtasidagi muvozanatni saqlash uchun barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilishni talab etadi. Yashil tadbirkorlik aynan shu muammolarga yechim sifatida paydo bo‘lgan yechim va tushunchalardan biri bo‘lib, u atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashga qaratilgan yo’nalishlar qo’llanmasidir. Mazkur yondashuv orqali tadbirkorlar ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash kabi usullar orqali

nafaqat foyda olishlari, balki atrof-muhitga, ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishlari mumkin. Yashil tadbirkorlik – bu iqtisodiy faoliyatning ekologik barqaror shakli bo‘lib, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, uglerod izini kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish kabi tamoyillarga asoslanadi. Ushbu model nafaqat atrof-muhitni muhofaza qiladi, balki yangi ish o‘rinlari yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va jamiyatda ekologik madaniyatni oshirishga ham xizmat qiladi.[1] Darhaqiqat, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi butun dunyoda tobora ommalashib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilgan barqaror rivojlanish maqsadlaridan biri ham ekologik barqarorlikni ta’minlashdir. O‘zbekiston ham o‘zining iqtisodiy strategiyasida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga e’tibor qaratmoqda. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlarini joriy etish va chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va boshqa xalqaro tashkilotlar yashil iqtisodiyot tamoyillarini ilgari surib, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni targ‘ib qilmoqda. BMTning 2030-yilgacha mo‘ljallangan “Barqaror rivojlanish” maqsadlarida, ekologik barqarorlik muhim o‘rin tutadi. Ko‘plab rivojlangan mamlakatlar, jumladan, AQSh, Germaniya, Xitoy va Janubiy Koreya yashil iqtisodiyot va ekologik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus dasturlar ishlab chiqmoqda.[2] O‘zbekiston, ham bu borada faol harakat qilmoqda. Davlat rahbariyatining "Yashil iqtisodiyot" strategiyasi doirasida ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik tadbirkorlikni rag‘batlantirish kabi yo‘nalishlar bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bois, yashil tadbirkorlikni rivojlantirish bugungi kunda dolzarb muammo bo‘lib, uni o‘rganish va takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston ham yashil iqtisodiyot yo‘nalishida bir qancha islohotlarni amalga oshirmoqda. 2019-yilda qabul qilingan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” doirasida 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25% ga yetkazish maqsad qilib qo‘yilgan. Bundan tashqari, 2023-yilga kelib O‘zbekistonda 2 GW quvvatga ega quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirilgan, bu esa ekologik tadbirkorlikning rivojlanishi uchun muhim zamin yaratadi.[3]

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish sohasida 2022-yil davomida amalga oshirilgan ishlar va olib borilgan islohotlar haqida to’xtaladigan bo’lsak:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekbrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son Qarori qabul qilindi.[4]

Qaror bilan quyidagi strategik hujjatlar va tizimlar tasdiqlandi:

- strategik maqsadlarga erishishga mo‘ljallangan 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash dasturi; - sanoat tarmoqlarida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va energiya tejamkorligini ta’minlash bo‘yicha konsepsiya;
- 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash bo‘yicha harakatlar rejasi;
- ishlab chiqarilgan mahsulotning energiya sig‘imi ko‘rsatkichini 2026-yilga kelib 2022-yilga nisbatan 20 foizga kamaytirishga qaratilgan 2022–2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida yoqilg‘i-energetika resurslarini tejashning maqsadli parametrlari;
- O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish choralarini muvofiqlashtirish bo‘yicha idoralararo kengash tarkibi yangilandi;[5]

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar shuni, ko’rsatadiki, yashil iqtisodiyot rivojlanishi nisbatan yildan yilga yaxshilanib borayotganligi va samarali islohotlar o’tkazilayotganligidan dalolat beradi. Yashil tadbirkorlikning bugungi iqtisodiyotga ta’siri ne chog’lik ahamiyatli va zarur ekanligi, jahon tajribasida shuni ko‘rsatmoqdaki, yashil iqtisodiyotning rivojlanishi nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiy o‘sishni, ham rag‘batlantiradi. O‘zbekiston yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha ilk qadamlarni qo‘ymoqda. Hozirda quyosh energiyasidan foydalanish bo‘yicha yangi loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, Navoiy viloyatida 100 MVt quvvatga ega quyosh elektr stansiyasi ishga tushirildi. Bundan tashqari, 2030-yilgacha O‘zbekistonning qayta tiklanuvchi energiya ulushini 25% ga yetkazish rejalashtirilgan.[6] Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq muammoli masalalar mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligiga, xususan, iqtisodiy o‘sish va kambag‘allikni qisqartirish, ekologik va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Shundan kelib chiqib, ushbu yo‘nalishda mamlakatda iqlim o‘zgarishi ta’sirini kamaytirish va unga moslashish, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish choralarini jadallashtirish, “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish modelini targ‘ib qilishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu borada, mamlakatda “yashil” iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, “yashil” investitsiyalarni jalb qilish, ekologik inqirozning salbiy ta’sirini yumshatish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktabrdagi PQ-4477-son qarori bilan 2019—

2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi tasdiqlangan.[7]

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, yashil tadbirkorlik bugungi global iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lib, ekologik barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni uyg‘unlashtirishga xizmat qilmoqda. Yurtimizda olib borilayotgan bu kabi, islohotlar va ularning ahamiyati biz uchun juda, ham muhim hisoblanadi. Negaki, mamlakatimizni asrab-avaylashimiz, har tomonlama vatanimiz ravnaqiga hissa qo’shishimiz bizning, ham farzimiz, ham burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sustainable Event Alliance (SEA) - "Green Event Guidelines" (2019).
2. BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP). (2023). Green Economy Progress Measurement Framework. Retrieved from: https://www.unep.org .
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”. Toshkent.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son.12.02.2022.
5.Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish sohasi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar: https://www.imv.uz/media/prior/Yashil.pdf .
6. O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar https://lex.uz/docs/-6303230 .
7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktabrdagi PQ-4477-son qarori bilan 2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi .

ASOSIY MAKROIQTISODIY KO’RSATKICHLAR

Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon fakulteti katta o’qtuvchisi
Ahrorqulov Jonibek Otabek o’g’li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon fakulteti “Soliqlar va soliqqa tortish” yo’nalishi 2-bosqich talabasi
ahrorqulovjonibek1@gmail.com